

PAXTA TO'QIMACHILIK KORXONALARI FAOLIYATI TAHLILINING USLUBIY ASOSLARI

Rashidov R.I.

QMII, "Buxgalteriyahisobi va audit" kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada paxta to'qimachilik korxonaları faoliyati tahlilining uslubiy asoslari bayon qilingan bo'lib, unda iqtisodiy tahlilning zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan va sohada tahlil o'tkazishning uslubiy jihatlari yuzasidan tadqiqot natijalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik, paxta, fermer, klister, tahlil, buxhalteriya hisobi, balans, qiyoslash, so'rovnom, miqdoriy tahlil, samaradorlik, ko'rsatkich.

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-sonli Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy tahlildan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, tizimda tashkil etilgan paxta-to'qimachilik korxonaları va uning zamonaviy shakllarini joriy qilinishi, paxta-to'qimachilik korxonaları hududida joylashgan paxta tozalash zavodlari va paxta tayyorlash punktlarining ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning natijalarini baholab borishda, hamda foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni axtarib topishda iqtisodiy tahlil ob'yektiv zaruriyat hisoblanadi.

Iqtisodiy tahlil fan sifatida o'z ilmiy asoslariga ega bo'lib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar iqtisodiyot sub'yektlarining barcha sohalarida erishgan natijalarini baholash, unga ta'sir etuvchi omillar ta'sirini o'lchash, foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni axtarib topish va kelgusida amalga oshirilishi zarur bo'lgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi. Ma'lumki, iqtisodiy tahlil iqtisodiy fanlar tizimida o'z o'rniga ega, fanning shakllanishi esa hayotiy zaruriyatga asoslanadi va ob'yektiv jarayonlarga tayanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI. Iqtisodiy tahlil fani ko'p asrlik tarixga ega bo'lgan buxgalteriya hisobi va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan, bu uchun esa ob'yektiv shart-sharoitlar yaratilgan. Korxonalarni to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rganish, buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga tahliliy izoh berishni talab qilinishi o'z navbatida hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun ob'yektiv asos bo'lgan.

M.Q.Pardayevning "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" nomli darsligida fanning shakllanish tarixi batafsil bayon qilingan bo'lib, fanga dastlab Italiya buxgalterlar maktabining buyuk namayondasi Luka Pacholi tomonidan asos solinganligi va dastlab iqtisodiy tahlil buxgalteriya balansini o'qishga bag'ishlanganligi

qayd etilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Bugungi zamonaviy boshqaruvda iqtisodiy tahlil bilish nazariyasining muhim usuli sifatida o'rganilayotgan obyektning barcha uslubiy asoslangan qatlamlarini o'rganish, ta'riflash, bilishning mohiyatini aniqlash imkonini beradi. Shunday ekan, paxta-to'qimachilik korxonalarida iqtisodiy tahlil yordamida paxtaning sifati, tolasining uzunligi, pishiqligi va mikroneyer ko'rsatkichlarini iqtisodiy baholash orqali xalqaro standartlarga to'la javob berishi, jahon tola bozorida xaridorligini taminlash imkoniyati yanada oshadi. Ayniqsa, o'zimizda yetishtirilayotgan paxta tolasining o'zimizda ikki, uch bosqichli qayta ishlanishi, nafaqat eksportbosh tayyor mahsulot olish, balki, bir qancha yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini ham beradi.

Olib borayotgan tahliliy taqdidotlarimiz ko'rsatadiki, paxta-to'qimachilik korxonalarining iqtisodiy samaradorligini yanada oshirishda "Paxta-to'qimachilik klasteri" alohida ahamiyatga ega. Chunki, "Paxta-to'qimachilik klasteri" mehnatni tashkil qilishning shunday zanjirini hosil qiladiki, bunda xom-ashyoni yetishtirish va undan sifatli tayyor mahsulot olish, eksport qilish va yuqori moliyaviy natijaga ega bo'lish uchun paxtani yetishtirishdan boshlab tayyor mahsulotga aylangunigacha mas'ul bo'lgan mustaqil faoliyat yurituvchi barcha subyektlarni bir joyda to'plash, hamkorlikda ishlash, ijobiy yakuniy natijani shakllantiruvchilar tizimini yaratish imkoniyatini yuzaga chiqaradi.

Tadqiqotlarimizda olib borayotgan tahlillarimiz ko'rsatadiki, milliy iqtisodiyotimizda "Paxta-to'qimachilik klasterlari"ni tashkil etishning hududiy shaklidan foydalanilmoqda va bunda ijobiy natijalar, afzalliklar bilan bir qatorda o'z yechimini kutayotgan muammoli jihatlar ham kuzatilmoqda. Xususan, respublikamizda paxta maydonlarining 90 foizi hududiy klasterlar tarkibiga o'tkazilgan bo'lib, bor-yo'g'i 10 foiz paxta maydonlari mustaqil fermer xo'jaliklari tasarrufida qolgan. Ushbu holat paxta-to'qimachilik korxonalarida xom ashyoga nisbatan tanlash imkoniyatida raqobat muhitini yo'qotishi bilan birgalikda, sohada klasterning hududiy shaklda tashkil etilganligi fermerlarning klasterlarga birlashishlarida ixtiyoriylik tamoyilini, oxir oqibat manfaatdorlik tamoyillarining buzilishiga olib kelmoqda.

Qashqadarya viloyatida tashkil etilgan "Paxta-to'qimachilik klasterlari"da o'tkazgan so'rovlarimizda ishtirok etgan fermerlarimizning aksariyati (128 nafar respondentdan 103 nafari), ya'ni 80,4 foizi paxta to'qimachilik klasterlarining asosiy maqsadi: degan so'rovga "fermer hisobiga foyda ko'rish" ekanligini qayd etishgan.

So'rovnomada ishtirok etgan respondentlarga tadqiqot maqsadi va muammolar yechimi yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilishi haqida batafsil tushuntirishlar berilmagan bo'lsada, so'rovnomada ishtirok etish ixtiyoriy va faqat ishtirokchilarning soha yuzasidan fikrlari qadrli ekanligi aytilganda yuqorida qayd etilgan javobni belgilashgan. Shuningdek, "Paxta-to'qimachilik klasterlari" samaradordorligining miqdoriy ko'rsatkichlari (SMK) iqtisodiy tahlil qilinganda mashina terimining ulushi jami terimning 15 foizidan yuqori emasligi aniqlandi. Ushbu holatni ijobiy baholab bo'lmaydi.

XULOSA. Xulosa o'rnida shuni ta'killash mumkinki, sohada tashkil etilayotgan klasterlarning iqtisodiy samaradorligini ta'minlash va yanada oshirishda "Paxta-to'qimachilik klasterlari"ni tashkil etishning tashkiliy mexanizmlarida nafaqat buxgalteriya bo'limi balki, "Iqtisodiy tahlil" bo'limlarini ham shakllantirish va unga malakali kadrlarni jalb etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, iqtisodiy tahlil qo'llanilish sohasi, qo'llanilish usullari va mavzusi hamda qamrovi bo'yicha ham klaster tarkibidagi tarmoqlarning xususiyatlarini inobatga olgan holda turlicha bo'lishi tadqiqotlarimiz jarayonida o'z tasdig'ini topmoqda. Xususan, tizimda iqtisodiy tahlilning an'anaviy-statistik usullari bilan bir qatorda iqtisodiy-matematik usullaridan foydalanish nafaqat klasterning tarkibiy bo'limlarini, balki iqtisodiy

tahlilni o'zini ham samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 14 dekabrda PF-5285-sonli Farmoni. www.lex.uz.
2. Pardayev M.Q. "Iqtisodiy tahlil nazariyasi".-S.Zarafshon, 2001.
3. Аминов Ф.Б. (2022). НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ КООПЕРАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН. Экономика и социум, (10-1 (101)), 232-237.
4. Аминов, Ф. Б. (2022). УСЛОВИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.
5. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИДА ИНВЕСТИЦИЯЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (4 (140)), 42-47.
6. Эгамбердиева, С. Р. МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТНИНГ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАРИГА ЎТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АҲАМИЯТИ.« ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ: МУАММО, ТАҲЛИЛ ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ» Халқаро илмий-амалий анжуман илмий мақолалар тўплами 20-21 май 2021 й, 460.
7. Эргашева, Н. (2022). ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ КОРХОНАЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИНГ ТАШКИЛИЙ-УСЛУБИЙ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Innovatsion texnologiyalar*, 1(04), 108-111.
8. Эгамбердиева, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
9. Azimova, N. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
10. Normamatovich, Kholmurodov O., et al. "Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework." *JournalNX*, vol. 6, no. 05, 2020, pp. 53-56.
11. Музаффарова, К. З. (2021). МИНТАҚА ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ ҲОЛАТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ. *Архив научных исследований*, 1(1).
12. Музаффарова, К. З. (2019). Роль иностранных инвестиций в развитии национальной экономики Узбекистана. *Экономика и предпринимательство*, (1), 411-414.
13. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. *ECONOMICS*, (3), 33-42.
14. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & NAKIMOVICH, V. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.

15. Турсунов, И., Рахматуллаев, А., & Бердиев, А. (2017). Формирование кластеров как фактор инфраструктурного обеспечения инновационного предпринимательства. *European Journal of Humanities and Social Sciences*, (2), 84-87.
16. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Prospects for Cluster Activities in the Agricultural Sector: Problems and Solutions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 99-108.
17. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Implementing Digital Technologies in Agricultural Sector. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 109-113.
18. Berdiyev, A. H., & Rasulov, K. K. (2022). Issues of Increasing the Investment Potential of the Regions. *Journal of Marketing and Emerging Economics*, 2(5), 93-98.
19. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
20. Туробов, Ш. А., & Фахриддинов, Б. Ф. Ў. (2021). УЙ ХЎЖАЛИКЛАРИ ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ–ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТАРАҚҚИЁТИ ГАРОВИ СИФАТИДА. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (4 (140)), 15-20.
21. Turobov, S. A., & Azamatova, G. I. (2020). REGIONAL CHARACTERISTICS OF HOUSEHOLD ENTREPRENEURSHIP ACTIVITIES IN KASHKADARYA REGION. *Economics and Finance (Uzbekistan)*,(2 (134)).
22. Turobov, S., & Azamatova, G. (2020). The Role Of Households In The Development Of The Digital Economy. *International Finance and Accounting*, 2020(3), 35.
23. Yakubova, S. (2021). Sh. The role of effective implementation of monetary policy in a pandemic condition/Sh. Sh. Yakubova, MD Raimova. *Theoretical & Applied Science*, (12), 104.
24. Усанов, А., & Рахмонкул, Д. (2019). Ўзбекистон иқтисодий ривожланишида камерал назоратнинг туган ўрни. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 55-60.
25. Джалилов, Р. (2023). ҚЎШИЛГАН ҚИЙМАТ СОЛИҒИ БЎЙИЧА ИМТИЁЗЛАР ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Economics and education*, 24(2), 272-278.
26. Рашидов, Р. И., & Муртазаев, Н. Р. (2020). DIRECTIONS OF INNOVATIVE AGRICULTURAL DEVELOPMENT. *ЖУРНАЛ АГРО ПРОЦЕССИНГ*, 2(7).
27. Alisherovich, T. S., & Iskandarovich, R. R. (2021). The Importance of Household Entrepreneurship in Providing Employment. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 177-182.
28. Аликулов, А. Т. (2019). Ўзбекистонда иқтисодий либераллаштириш ва унинг капитал оқимига таъсири. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (6), 54-58.
29. Tuugunovich, A. A., & Islamovna, G. F. (2022). WHAT FACTORS INFLUENCE THE ACTIVITY OF RETAIL INVESTORS IN THE CAPITAL MARKET. *Gospodarka i Innowacje*, 29, 373-380.
30. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
31. Toxirovna, S. G. (2021). Dehkan Farm-Services To Sustain Food Supply. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 6, 1-5.

32. Samiyeva, G. T. (2021). The Main Tasks Of Farms And Dekhkan Farms In Ensuring Productive Security In Uzbekistan. *Journal of Contemporary Issues in Business and Government*.
33. Маматов, А. А., Жураев, Т. Т., Назарова, Ф. Х., Хуррамов, А. Ф., & Маматов, М. А. (2020). Развитие хлопково-текстильных кластеров в экономике Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (9), 419-423.
34. Маматов, А. А., & Хуррамов, А. Ф. (2017). Иностраннные инвестиции как фактор экономического роста Республики Узбекистан. *Экономика и предпринимательство*, (10-2), 98-101.
35. Хуррамов, А. (2012). О монографии ИС Абдулаева «ПРОГНОЗИРОВАНИЕ СОЦИАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА». *ва молия Экономика*, 50.
36. Хуррамов, А. Ф. (1993). Арендные отношения и пути их совершенствования в условиях перехода к рыночной экономике (на примере хлопководческих совхозов).